

## QOQIO‘T (TARAXACUM OFFICINALE ) O‘SIMLIGINING SISTEMATIKASI MORFOLOGIYASI, ANATOMIYASI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

**Iminova Gulmiraxon Baxodir Qizi**

*Andijon davlat universiteti, Biotexnologiya mutaxassisligi 1 -kurs magistranti*

[iminova.gulmiraxon@gmail.com](mailto:iminova.gulmiraxon@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: Tuxtaboyeva Feruza Muratovna**

[feruzatoxtaboyeva1971@gmail.com](mailto:feruzatoxtaboyeva1971@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada *Taraxacum officinale* (Momaqaymoq) o‘simligini sistematik o‘rni, tashqi va ichki tuzilishi, xususiyatlari va uning farmakologik ahamiyatlari haqida yoritilgan. *Taraxacum officinale* o‘simligini xalq orasida Qoqio‘t deb nomlanadi. Barglari, ildizi va guli dorivor o‘simlik sifatida keng ishlatiladi.

**Kalit so‘zlar.** *Taraxacum officinale*, momaqaymoq, qoqio‘t, dorivor o‘simlik

**Abstract.** This article covers the systematic position, external and internal structure, characteristics, and pharmacological significance of the *Taraxacum officinale* plant. The plant *Taraxacum officinale* is popularly known as Qoqiöt. Its leaves, roots, and flowers are widely used as medicinal plants.

**Keywords:** *Taraxacum officinale*, dandelion, dandelion root, medicinal plant

Dorivor o‘simliklar insoniyat tarixida qadimdan muhim o‘rin egallab kelgan bo‘lib, ular xalq tabobati va zamonaviy farmatsevtika sohasida keng qo‘llaniladi. Hozirgi kunda tabiiy biologik faol moddalarga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi, sintetik dori vositalarining nojo‘ya ta’sirlari sababli dorivor o‘simliklarni chuqur ilmiy o‘rganish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, mahalliy floraga mansub, keng tarqalgan va ekologik jihatdan moslashuvchan o‘simliklarning sistematikasi, morfologiyasi, anatomiyasi hamda dorivorlik xususiyatlarini kompleks o‘rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Qoqio‘t (*Taraxacum officinale*) shunday istiqbolli dorivor o‘simliklardan biri bo‘lib, u murakkabguldoshlar (Asteraceae) oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik hisoblanadi. Ushbu o‘simlik mo‘tadil iqlim mintaqalarida keng tarqalgan bo‘lib, O‘zbekiston hududida ham dalalar, bog‘lar, yo‘l yoqalari va yaylovlarda uchraydi. Qoqio‘tning yer ustki va yer ostki qismlari biologik faol moddalar — flavonoidlar, achchiq glikozidlar, inulin, vitaminlar va mineral elementlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Qoqio‘tning dorivorlik ahamiyati asosan ovqat hazm qilish tizimini yaxshilash, o‘t haydovchi, yallig‘lanishga qarshi, siydik haydovchi va moddalar almashinuvini tartibga soluvchi xususiyatlari bilan bog‘liq. Shunga qaramay, ushbu o‘simlikning tashqi va ichki

tuzilish xususiyatlari, anatomik belgilarining dorivor xomashyo sifatini aniqlashdagi o'rnini yetarli darajada tizimli ravishda yoritilmagan.

Sistematikasi:

Qoqio't — momaqaymoq (ilmiy nomi: *Taraxacum officinale*) o'simligining umumiy botanik sistematikasi quyidagicha bo'linadi:

*Taraxacum officinale* - (Xalq orasida - Qoqi o't, Momaqaymoq) ning sistematikasi

Bo'lim: Gulli o'simliklar — Magnoliophyta

Sinf: Ikki pallalilar — Magnoliopsida

Oila: Astragalilar / Korryovdoshlilar — Asteraceae

Turkum (Rod): *Taraxacum*

Tur: *Taraxacum officinale* — Qoqio't -Momaqaymoq



Morfologiyasi

Qoqio't- (*Momaqaymoq*) morfologiyasi haqida umumiy ma'lumotlar

1. Ildiz tizimi haqida umumiy ma'lumotlar.

Tipi: Bitta uzun, kuchli shakllangan baquvvat ildiz bor.

Rangi: Jigarrang yoki qo'ng'ir tusda bo'ladi. Xususiyati: Ildiz ichida sutli sharbat (lateks) mavjud bo'ladi. Vazifasi: Suv va ozuqa moddalari yig'adi, qish mavsumida o'simlikni har hil sharoitdan himoya qilib saqlaydi.

Poya anatomiyasi

2. Poyasining tuzilishi haqida ma'lumotlar.

Asl poyasi yo'q bo'ladi — yer ustki haqiqiy poya shakllanmaydi. O'simlik yer sathiga yopishib o'suvchi barglari rozetasini hosil qilib o'sadi. Gullovchi poyachasi (gulbandlari) esa uzun shaklda bo'lib, ichida bo'sh gulkurtak ko'targich (poyachasi) ko'rinishida joylashgan bo'ladi.

### 3. Barglarining joylashuvi haqida umumiy ma'lumotlar:

Barglari- yerga yastanib o'suvchi rozeta shaklda bo'lib joylashadi. Shakli: uzun, pat-pat bo'lingan bo'lib, tishsimon yoki lanset shakllarda poyada joylashgan bo'ladi. Uchi: o'tkir bo'lib joylashadi. Chetlari esa: Notekis tishli yoki chuqur bo'lingan bo'lishi mumkin. Rangi: To'q yashil bo'ladi. Barglari esa kesilganda sutli sharbat ajratib chiqaradi.

### 4. Gullarining tuzilishi:

Savatcha (korzinacha) shaklida joylashgan bo'ladi — Asteraceae oilasiga xos bo'lib, har bir savatcha minglab mayda tillar (tilsimon gullar)dan tashkil topgan bo'ladi. Ranglari esa: Yorqin sariq bo'lib joylashuvi : Uzun, ichi bo'sh bir dona gulkurtak ko'targich poya uchida joylashadi. Gullash davri: Bahordan kuzgacha davom etadi.

### 5. Mevasining tipi quyidagicha bo'ladi:

Achene (yong'oqcha shaklda bo'lib mayda, qattiq meva). Har bir urug'ining uchida "parachutcha" – pappus joylashgan bo'lib, ular shamol yordamida uzoq masofalargacha tez tarqaladi.

### 6. Urug'lari haqida ma'lumotlar:

Urug'lari -juda mayda shaklda bo'lib, jigarrang tusga ega. Plastik tolalardan tashkil topgan parachutchasi tufayli havoda uzoq uchib yura oladi. Juda ham tez unadi, shu sababli ko'p yillik o'simlikni keng tarqalishiga sabab bo'ladi.

7. Sutli sharbat (Lateks) esa - o'simlikning butun qismida bo'lib uni — barglarida, poyachalarida, ildizida topish mumkin. Oq rangli qalin sharbat. Himoya funksiyasini bo'lib xizmat qiladi.



### Qoqio'tning dorivorlik xususiyatlari

#### 1. Organizmni tozalovchi (detoksikasiya) xususiyati haqida:

Qoqio‘tning bargi va ildizidagi moddalari organizmdan toksin va zararli moddalarni chiqarish xususiyati ham bor. Ular jigar faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, jigarni tozalovchi o‘simlik sifatida keng foydalaniladi.

2. Safro haydovchi (xoleretik) ta’sirlari haqida : Ildiz va barglarda mavjud achchiq glikozidlar safro ajralishini kuchaytirib safro yo‘llari faoliyatini yaxshilaydi va ovqat hazm qilishni normallashtiradi.

3. Siydik haydovchi (diuretik) ta’sirlari haqida:

Organizmda saqlanib qolgan ortiqcha suyuqliklarni chiqarib yuboradi.

Shishlar (oedema), yurak–buyrak bilan bog‘liq suyuqlik to‘planishida ham keng qo‘llaniladi.

4. Hazmni yaxshilovchi xususiyatlari ham mavjud:

Ildizlaridagi achchiq moddalar oshqozon shirasi ajralishini kuchaytiruvchi xususiyatga ega. Bu esa ishtahani ochadi, hazm qilishni yaxshilaydi.

Ovqat hazm qilish buzilishlarida (dispepsiya) juda ham foydali hisoblanadi.

5. Yallig‘lanishga qarshi (antiinflamator) xususiyatlari haqida ma’lumotlar:

Flavonoidlar, fenol kislotalari yallig‘lanishni kamaytiradi.

O‘simlikning qismlaridan tayyorlangan ajratmalar oshqozon-ichak, bo‘g‘imlardagi yallig‘lanishlarda yordam beradi.

6. Qand miqdori haqida:

Ba’zi tadqiqotlarga ko‘ra qoqio‘t ildizi qondagi glyukoza darajasini pasaytirishga yordam berishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ammo diabet bilan og‘rigan bemorlarga mutaxassislar nazorati bilan iste’mol qilishi kerak deb maslahat berishadi.

7. Immunitetga ta’sir qiluvchi moddasi ham mavjud.

Antioksidantlarga boy bo‘lgani uchun organizmning himoya kuchini oshirishga yordam beradi.

Erkin radikallarni zararsizlantiradi.

8. Jigar faoliyatini tiklashda haqida ma’lumotlar:

Gepatoprotektor sifatida qo‘llanishi:

Jigar hujayralarining tiklanishiga yordam beruvchi bioaktiv moddalarga ega.

9. Qon aylanishiniga ta’siri haqida:

Qon tomirlarni mustahkamlaydi, mikrosirkulyatsiyani yaxshilaydi.

10. Tashqi qo‘llanishi haqida ma’lumotlar:

Bargidan sharbat tayyorlanadi uni teridagi yallig‘lanishlar, mayda yara va toshmalarda qo‘llanadi.

Teri tozalovchi sifatida kosmetologiyada keng qo‘llaniladi.

Asosan ildizi, bargi va gulidan foydalaniladi. Quyida ular haqida ba'zi ma'lumotlar:

Ildizi — dorivor moddalarning asosiy manbai bo'lib undan tabobatda keng qo'llaniladi. Olimlar momaqaymoq ildizining foydasi kimyoterapiyadan samaraliroq ekanligini isbotladilar. Hatto, mijozlar uni to'rt oy uzluksiz ichib tuzalib ketganligini ta'kidlashmoqda.

Bargi — vitaminlarga juda ham boy bo'lib ular (A, C, K vitaminlari).

Guli — yengil tinchlantiruvchi va yallig'lanishga qarshi dorilar tayyorlashda farmasevtikida keng foydalaniladi.

Xulosa

Qoqio't - (*Taraxacum officinale*) tabiatda juda ham keng tarqalgan bo'lib, tarkibida boy biologik aktiv moddalarni saqlovchi sifatida qadimdan insonlar dorivor o'simliklar qatorida keng foydalanishgan. Uning morfologik tuzilishi — baquvvat ildizi, yerga yastanib o'suvchi rozeta shaklidagi barglari va ko'plab mayda tillar gulchalaridan iborat savatcha guli — o'simlikning turli ekologik sharoitlarda muvaffaqiyatli moslashib yashashiga imkon yaratadi. Qoqio't o'simligi tarkibidagi flavonoidlar, achchiq glikozidlar, vitaminlar va mineral moddalarning ko'pligi uchun uni dorivor jihatlari uni juda ham qimmatli qiladi.

O'simlikning ildizi, bargi va guli xalq tabobati hamda zamonaviy fitoterapiyada jigarni tozalashda, safro haydovchi, siydikni haydash, hazmni yaxshilash va yallig'lanishlarni kamaytirish kabi bir qancha maqsadlarda qo'llanib kelinmoqda. Shuningdek, antioksidant xususiyatlari tufayli organizmning himoya kuchini oshirishga amaliy yordam ko'rsatadi. Qoqio'tning qadrlanishi uning oddiyligi, keng tarqalganligi va yuqori shifobaxsh qiymati bilan bog'liq hisoblanib, uni tabiatning eng foydali o'simliklaridan biri bo'lib hizmat qiladi. Shuning uchun, qoqio't nafaqat o'simlikshunoslikda, balki tibbiyot, farmakologiya, farmasevtika va ayniqsa xalq tabobatida juda ham muhim ahamiyat kasb etuvchi o'simlik hisoblanadi. Shuning uchun uni o'rganish va amaliyotda qo'llash kelajakda ham o'z dolzarbligini saqlab qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov A. va boshqalar. Dorivor o'simliklar anatomiyasi va morfologiyasi. – Toshkent, 2022.
2. Flora Uzbekistana. T. VIII. – Tashkent, 1987.
3. WHO Monographs on Selected Medicinal Plants. – Geneva, 2020.
4. Karimov A. va boshqalar. (2019). O'zbekiston florasida dorivor o'simliklar. Toshkent Fan.
5. Jurayev B (2020). O'simliklar fiziologiyasi Andijon: ADU nashriyoti